MADANIYATLARARO KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA: ASOSIY NAZARIY YONDASHUVLAR VA ILMIY QARASHLAR

Narbutaeva Zarnigor Maxammadkulovna
Guliston davlat Universiteti 1 bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya (MKK) tushunchasining shakllanishi, nazariy asoslari, ilmiy yondashuvlar, uning tarkibiy qismlari va talabalarda ushbu kompetensiyani rivojlantirishning zamonaviy talablari yoritilgan. Shuningdek, g‘arb olimlarining konseptual qarashlari tahlil etilgan. XXI asr – globallashuv, madaniyatlarning bir-biri bilan yaqinlashuvi va xalqaro axborot almashinuvining jadal rivojlanish davri hisoblanadi. Bu jarayonlarda turli etnik guruhlar, diniy, madaniy va til jamoalari o‘rtasidagi muloqot kundalik hayotning ajralmas qismiga aylandi. Shu sababli ta’lim tizimida, xususan, xorijiy til o‘qitish metodikasida madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya tushunchasi asosiy ilmiy kategoriyalardan biri sifatida qaralmoqda.

Kalit so‘zlar: kommunikativ, ilmiy, yondashuvlar, kompetensiya, madaniyatlararo, til, globallashuv.

Abstract: This article discusses the formation of the concept of intercultural communicative competence (ICC), its theoretical foundations, scientific approaches, its components and modern requirements for the development of this competence in students. The conceptual views of Western scientists are also analyzed. The 21st century is a period of globalization, the rapprochement of cultures with each other and the rapid development of international information exchange. In these processes, communication between different ethnic groups, religious, cultural and linguistic communities have become an integral part of everyday life. Therefore, in the education system, in particular, in the methodology of teaching a foreign language, the concept of intercultural communicative competence is considered one of the main scientific categories.

Keywords: communicative, scientific, approaches, competence, intercultural, language, globalization.

Talaba yoki o‘quvchi nafaqat tilni bilishi, balki uning madaniy kontekstlarini, milliy mentalitet bilan bog‘liq muloqot me’yorlarini tushunishi zarur. Madaniyatlararo kompetensiyaga ega bo‘lmagan shaxs tilni grammatik jihatdan mukammal bilsa ham, muloqot jarayonida ko‘plab xatoliklarga yo‘l qo‘yadi. Shuning uchun MKKni tadqiq etish va uni o‘quv jarayoniga tatbiqetish zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishi hisoblanadi. Chet tilini o‘rganishda shunchaki so‘z va grammatikani bilish yetarli emasligini bugungi kun talablari isbotlab qo’ydi. Chunki faqatgina til qoidalarini bilish, so‘z boyligini oshirish orqali xorijiy tilni mukammal o‘zlashtirish yoki xorijliklar bilan muvaffaqiyatli muloqotga kirishish yoki xorijiy tildan tarjima ishlarini olib borish qiyin masala ekanligi kundek ravshan. Bunda xorijiy tilni samarali o‘qitish va o‘rgatishda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini o'rni beqiyosdir . Chunki bu odamlar o‘rtasida to‘g’ri tushunish, muvaffaqiyatli muloqotga erishish va tinchlikni ta’minlamaydi. Buning uchun xorijiy tilni o‘rganishda shu til egalarining madaniyatini, dunyoqarashini, odatlarini ham o‘rganish muhim sanaladi. Shu sababli bo‘lajak ingliz tili mutaxassislarida madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish global muhitda muhim ahamiyatga ega. Til o‘rganishda madaniyat komponentining integratsiyasi talabalar o‘rtasida tushunish va hamkorlikni kuchaytiradi. Shu sababli quyidagi maqolada madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyaning nazariy asoslarini kengroq tahlil qilinadi

Ta’lim jarayonida talabalar xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida nafaqat lingvistik bilimlarni, balki madaniyatlararo muloqotda muvofiq harakatlana olish ko‘nikmalarini ham egallashi zarur. Shu bois madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya tushunchasi til ta’limi metodikasida asosiy nazariy kategoriyalardan biri sifatida qaraladi. Bu utshunchaning tarixiy shakllanishi 1960–1970-yillarda g‘arb ilmiy maktablarida boshlangan bo‘lib, avval kommunikativ kompetensiya nazariyasiga asoslangan. A. Hymes kommunikativ kompetensiyani tilni grammatik jihatdan to‘g‘ri qo‘llash emas, balki ijtimoiy kontekstdagi mos nutq xatti-harakati sifatida tushuntirgan. Keyinchalik ushbu nazariya madaniyat omili bilan boyitilgan. 1950–1980-yillarda amerikalik antropolog E. Hall madaniy kontekstlarning muloqotga ta’siri, submadaniyatlar, vaqt va fazo tushunchalarining turli madaniyatlardagi farqlari haqida ilmiy qarashlarni ilgari surib MKKning dastlabki konseptual asoslarini yaratdi.

Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya nazariyasining shakllanishi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab g‘arb pedagogik va lingvistik tadqiqotchilarining etiborini tortdi. XX asr oxiri — XXI asr boshlarida g‘arb tadqiqotchilari tomonidan MKKni to‘liq nazariy model sifatida shakllantirildi. Bu nazariyaning metodologik poydevorini A. Hymesning “kommunikativ kompetensiya” konsepsiyasi tashkil etadi Keyinchalik E. Hall, M. Bennett,

D. Deardorff, Julia Kristeva (1991) Claire Kramsch (1995) Byram (1997) kabi olimlar mazkur tushunchaning madaniyatlararo o‘lchovini kengaytirib, uning struktur modelini ishlab chiqdilar. G‘arb olimlarining yondashuvlari turlicha bo’lishiga qaramay ularning negizi bitta hisoblanadi.

Masalan D. Hymes kommunikativ kompetensiyani til bilimidan tashqari, ijtimoiy kontekstda mos nutq strategiyalarini qo‘llash muloqot strategiyalarini tanlay olish qobiliyati sifatida izohlasa, E. Hall “yuqori (Arab davlatlari , Yaponiya) va past (AQSH, Germaniya) kontekstli madaniyatlar” nazariyasi orqali insonlar o‘rtasidagi muloqotning mazmuni faqat so‘zlarda emas, balki madaniy konteksta ham mujassam ekanligini isbotladi. G’arb olimlaridan yana biri M. Bennett o’zining ilmiy tadqiqotlari davomida “Interkultural sezgirlik rivojlanishi modeli (DMIS)”ni ishlab chiqib, bu orqali shaxsning etnomarkaziylikdan etnorelyativlikka o‘tish bosqichlarini belgilab berdi.

G’arb olimlaridan tashqari bu sohada MDH olimlari tomonidan ham ko’zga ko’rinarli ishlar amalga oshirilgan. MDH hududida S.G. Ter-Minasova, V.V. Safonova, O.I. Tomakhin, G.D. Gachev kabi olimlarning ishlari ham bu sohada muhim o‘rin tutadi. Masalan Ter-Minasova til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini asoslab, “til orqali madaniyatni o‘rgatish” konsepsiyasini ilgari surdi. Chunki til bu ijtimoiy hodisa bo’lib uni jamiyatdan va madaniyatdan ajralgan holda tassavvur qilib bo’lmaydi. Bundan tashqari E.G. Safonova — rus tilshunosi va metodisti ham , muloqot kompetensiyasining sotsiokultur tarkibi bo‘yicha samarali ilmiy ishlar olib borgan. Safonova fikriga ko‘ra, sotsiokultur kompetensiya – bu o‘rganilayotgan tilni real ijtimoiy-madaniy vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llashga imkon beradigan bilim, ko‘nikma va qadriyatlar majmui bo’lib, bu kommunikativ kompetensiyaning markaziy tarkibiy qismi sifatida ko‘riladi. Safanova nazariyasiga asosan, Sotsiokultur kompetensiya mazmun jihatidan quyidagi asosiy tarkibiy qismlarga bo’lingan

Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyaning metodologik asoslari: MKKni o‘rgatish quyidagi nazariy-pedagogik tamoyillarga asoslanib ularning birinchisi Sotsiokultural tamoyil. Bu tamoyilga ko’ra til jamiyat madaniyatining mahsuli hisoblanadi. Demak, tilni o‘rganish madaniyatni o‘rganish bilan parallel oli borilishi kerak. Ikkinchisi Kompetensiyaviy yondashuv bo’lib, ta’limda bilim yetarli emas, balki bilimni amaliy vaziyatlarda qo‘llay olish muhimligini targ’ib qiladi . Uchinchisi Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv bo’lib unda talaba madaniy subyekt sifatida qaraladi, uning tajribasi, dunyoqarashi va madaniy identifikatsiyasi inobatga olinadi. Va nihoyat oxirgisi Interaktiv yondashuv , unda o‘quvchi faol muloqot jarayoni ishtirokchisi bo‘ladi, rol o‘yinlari, muammoli vaziyatlar, keys-stadiylar qo‘llanadi. Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyaning ahamiyati quyidagi jihatlarda muhim hisoblanadi: global dunyoda muvaffaqiyatli muloqot qilish imkonini beradi, xorijiy til o‘rganishni tezlashtiradi, sotsiokultural moslashuvni osonlashtiradi, xalqaro hamkorlikda professional muvaffaqiyatni ta’minlaydi, konfliktlar oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Passov E.I. Kommunikativ metodika obucheniya inoyazichnomu govoreniyu. – M.: Prosveshchenie, 1991.
2. Safonova V.V. Izucheniye yazykov mezhkulturnogo obshcheniya v kontekste dialoga kultur. – Voronej, 1996
3. Verbitskiy A.A. Aktivnoye obucheniye v vysshey shkole. – M., 2019.
4. Xolmatova M. Til o‘qitishda keys texnologiyasining o‘rni. – Toshkent, 2020
5. Abdurahmonova N. Madaniyatlararo kommunikatsiya va ta’lim metodikasi. – Samarqand, 2019.

6. To‘laganova O. Keys metodining kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi o‘rni. – TATU, 2021
7. Jo‘rayev Z. Interfaol metodlar orqali talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirish. – Toshkent, 2022.
8. M. Byram. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence 1997